



**KLAX PEDAGOGIKASI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNING TEXNOLOGIK VA IJODIY QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH**

Adilova Noila Bahridin qizi

tayanch doktoranti Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya

Mazkur maqola Klax pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning texnologik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini o'rganadi. Klax pedagogikasi Germaniyada shakllantirilgan texnologik ko'nikmalar va ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Mazkur yondashuv o'yin asosidagi ta'lim, loyiha asosidagi faoliyat va hamkorlikdagi o'zaro ta'sirlar orqali bolalarni ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar topishga undaydi.

Kalit so'zlar: Klax pedagogikasi, texnologik qobiliyatlar, ijodiy qobiliyatlar, maktabgacha ta'lim, raqamli savodxonlik, kompyuter tafakkuri, emotsional intellekt, ijtimoiy muloqot

Klax pedagogikasida tarbiyalanuvchilarda quyidagi qobiliyatlarning rivojlanishi o'rganiladi:

- Texnologik qobiliyatlar: raqamli savodxonlik, kompyuter tafakkuri, dasturlashning boshlang'ich ko'nikmalari.
- Ijodiy qobiliyatlar: emotsional intellekt, ijtimoiy muloqot, hamdardlik, o'z-o'zini boshqarish.

Ushbu maqolada an'anaviy va Klax pedagogikasi asosida tashkil etilgan darslar taqqoslanadi hamda raqamli ijodiy o'yinlar va hamkorlikdagi loyihalar bolalarning kognitiv va emotsional rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi.

Klax pedagogikasi ilmiy jihatdan quyidagi nazariyalarga asoslanadi:

1. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi – o'yin orqali bilim olish jarayonini tushuntiradi

Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, aqliy va intellektual rivojlanishining qanday bosqichlarni o'tishini va qanday omillar bu jarayonlarni ta'sir qilishini



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th August, 2025

tushuntirib beradi. Piaget o'zining "kognitiv rivojlanish" nazariyasida insonlarning bilim olish va dunyoni tushunish jarayonini o'rganib chiqqan. Bu nazariyaga ko'ra, o'yin, ayniqsa bolalar uchun, o'rganishning va kognitiv rivojlanishning muhim vositasi hisoblanadi. Piagetning nazariyasiga ko'ra, bola o'z bilimlarini to'plab va yangi tajribalarga asoslanib, o'z dunyoqarashini shakllantiradi. Bola o'yinda harakatlanib, tajriba qilib, yangi narsalarni sinab ko'rganida, u o'zining kognitiv salohiyatini rivojlantiradi.

2. Vygotskiyning sotsiomadaniy nazariyasi – ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy kontekst orqali o'rganishni tahlil qiladi. Vygotskiyning sotsiomadaniy nazariyasi ta'lim va rivojlanish jarayonlarini ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy kontekst orqali tushuntiradi. Bu nazariya, ayniqsa, o'rganish jarayonida ijtimoiy va madaniy omillarni muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Vygotskiyning fikriga ko'ra, inson o'z rivojlanishida faqat biologik jihatdan emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda ham shakllanadi. Ushbu nazariyaning asosiy g'oyalari quyidagilar: Vygotskiyning nazariyasida ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning ahamiyati katta. U odamning aqliy rivojlanishining asosan jamiyat va madaniyat bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Boshqa so'z bilan aytganda, insonning o'rganishi va kognitiv rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar orqali yuzaga keladi. O'quvchi o'z bilim va ko'nikmalarini boshqalar bilan muloqot qilish, birgalikda ishlash va boshqalardan o'rganish orqali rivojlantiradi.

Madaniy kontekstning ahamiyati

3. Vygotskiy, har bir madaniyat o'ziga xos bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi deb hisoblaydi. O'rganish, faqat shaxsning faqat o'z ichki resurslariga asoslanib amalga oshmaydi, balki ular madaniy ashyolar, ramzlar, til va boshqa madaniy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, o'zbek maktabgacha tashkilotlarida berilayotgan bilimlar mahalliy madaniyatga, an'analariga va qadriyatlariga mos ravishda taqdim etiladi. Bu, o'rganish jarayonining madaniyatga bog'liqligini ko'rsatadi.



Tilning ahamiyati

4. Vygotskiy tilning o'rganishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Til, nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki fikrlash va ongli o'rganish jarayonining asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Til yordamida inson o'z fikrlarini tuzadi, dunyoni tushunadi va boshqalar bilan o'zaro ta'sir qiladi. Vygotskiy, tilning o'rganish va rivojlanish jarayonida markaziy o'rin tutishini ta'kidlagan. Tilni o'rganish orqali nafaqat so'z boyligini, balki dunyoqarashni ham shakllantiradilar.

5. Vygotskiyning sotsiomadaniy nazariyasi shuni ko'rsatadiki, o'rganish jarayoni ijtimoiy tabiatga ega. Bu jarayonlar o'quvchilarning o'zaro muloqoti, guruh ishlari, muhokamalar va jamoaviy faoliyat orqali amalga oshadi. Shuningdek fikr almashish va boshqalarning fikrlarini tinglash imkoniyatini beradi. Bu, faqat shaxsiy rivojlanish emas, balki ijtimoiy rivojlanishni ham anglatadi

Konstruktsionizm – texnologiyalar yordamida amaliy bilim olish va ijodkorlikni rivojlantirish Konstruktsionizm – bu ta'limda talabalarning bilim olish jarayonini, ular o'zlari yaratadigan va tajriba orqali quradigan narsalarga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Ushbu yondashuvning asosiy g'oyasi shundaki, bilim faqat oldindan tayyorlangan va o'rgatilgan materiallarni qabul qilish orqali emas, balki o'quvchi o'z tajribalarini va amaliy faoliyatlarini bajarish orqali shakllanadi. Konstruktsionizm talaba o'quv jarayonida faollik ko'rsatadi, o'z o'rganishlarini rejalashtiradi va ular bilan tajriba almashadi.

1. Konstruktsionizmning asosiy tushunchalari

Konstruktsionizmning asosiy g'oyasi, ayniqsa, Jean Piaget va Lev Vygotskiy kabi olimlarning ishlariga asoslanadi. Ular o'rgatish va o'rganish jarayonida talabaning faol ishtirokini, tajriba asosida bilim yaratishni ta'kidladilar.

Faol o'rganish: Konstruktsionizm o'quvchi o'zi yangi bilimlarni yaratadi. Bu o'z-o'zini o'rganish jarayonidir, ya'ni talaba yangi bilimlarni o'z amaliy faoliyatida qo'llab, sinab ko'radi.

Tajriba asosida o'rganish: O'quvchilar o'z tajribalariga asoslanib, bilimlarni shakllantiradilar. Masalan, loyihalar yaratish, tajriba o'rtasida muloqot qilish va ijodiy faoliyatni amalga oshirish.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th August, 2025

Sotsial o'rganish: Konstruktsionizmda hamjamiyatda o'rganish katta ahamiyatga ega. O'quvchilar bir-birlari bilan tajriba almashish, fikr-mulohazalarni izohlash va hamkorlikda ishlash orqali yanada samarali o'rganadilar.

2. Texnologiyalarning konstruktsionizmda roli

Konstruktsionizmda texnologiyalarning roli juda katta, chunki ular o'quvchilarga o'z bilimlarini yaratish va ko'rsatish uchun yangi vositalar taqdim etadi. Quyidagi texnologiyalar konstruktsionistik ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun foydalidir:

Loyiha asosida o'qitish: Texnologiyalar yordamida talaba real dunyo masalalariga asoslangan loyihalarni yaratishi mumkin. Masalan, robototexnika, 3D modelleme, dasturlash va boshqa amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchi o'z bilimlarini qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Onlayn o'quv platformalari: Internet orqali mavjud bo'lgan ta'lim resurslari, videodarslar va interaktiv dasturlar o'quvchilarga turli xil mavzularni mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi.

Dasturlash va kodlash: Dasturlash orqali o'quvchilar o'z ijodiy fikrlarini amalga oshirishlari mumkin. Texnologiyalar yordamida ular interaktiv dasturlar yaratish, o'yinlar ishlab chiqish, mobil ilovalar yaratish va boshqalar bilan tanishadilar.

3D modellashtirish va virtual haqiqat (VR): O'quvchilar 3D modellar yaratish va VR texnologiyasini qo'llab, o'z bilimlarini amalda ko'rish va sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Konstruktsionizmda ijodkorlikni rivojlantirish

Konstruktsionizmda ijodkorlikni rivojlantirish juda muhimdir, chunki bu yondashuv o'quvchilarga erkin fikrlash, yangi g'oyalar yaratish va ularni amaliyotga tadbiq qilish imkonini beradi. Ijodkorlikni rivojlantirishning bir qancha yo'nalishlari mavjud:

Muammolarni hal qilish: Konstruktsionizmda o'quvchilar turli muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvlarni qo'llaydilar. Texnologiyalar bu jarayonda ularga yordam berib, yangi echimlarni yaratishga undaydi.

Hamkorlikda ishlash: O'quvchilar birgalikda loyihalar yaratish, g'oyalarni almashish va ko'plab boshqalar bilan muloqotda bo'lish orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th August, 2025

O'z-o'zini baholash: Konstruktsionizm o'quvchiga o'z faoliyatini baholash imkoniyatini beradi. Bu jarayon ijodiy rivojlanishga yordam beradi, chunki o'quvchi o'z ishi haqida mulohaza yuritadi va uni yaxshilash usullarini topadi.

4. Konstruktsionizm da texnologiyalar orqali amaliy bilim olish

Texnologiyalar yordamida amaliy bilim olish konstruktsionizm da o'quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlanish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar o'zlarining bilimlarini amalda sinash va ijtimoiy va texnik jihatdan muhim masalalarni hal qilish uchun texnologik vositalarni qo'llaydilar. Shu bilan birga, ular o'z ishlari haqida fikr yuritib, o'z xatolaridan o'rganadilar va yangicha echimlar izlashadi.

Maslahatlashish va hamkorlik: O'quvchilar turli xil muammolarni hal qilishda birgalikda ishlashlari, maslahatlasha olishlari va o'z bilimlarini amalda qo'llashlari mumkin.

Kreativlik va innovatsiya: Texnologiyalar yordamida yangi g'oyalar va innovatsiyalar yaratish imkoniyati oshadi. O'quvchilar o'z ijodiy fikrlarini amaliyotga tadbiiq qilishda erkinlikka ega bo'lishadi.

Maqolada Germaniya, Skandinaviya va boshqa Yevropa mamlakatlaridagi Klax pedagogikasini qo'llash tajribalari o'rganilib, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Natijalar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglari, milliy o'quv dasturlari tuzuvchilari va ta'lim siyosatini ishlab chiquvchilar uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar keltirib o'tiladi. Mazkur tavsiyalar O'zbekistonda interfaol, va texnologiya bilan boyitilgan ta'lim muhitini yaratishga hissa qo'shadi.

Maktabgacha ta'lim bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va bolalarni erta yoshdan sifatli ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda 33 942 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritib, 3 millionga yaqin 3-7 yoshli bolalarning 74 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan [1] [2]. Maktabgacha ta'lim tizimida turli pedagogik yondashuvlar qo'llanilib, ularning har biri bolalarning rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi yondashuvlar keng tarqalgan:



1. **Montessori yondashuvi**

Montessori tizimi bolalarga o'z mustaqilliklarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu yondashuvda bola o'zini o'rgatishda faol ishtirok etadi, o'qish va o'rganishga qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, o'qituvchi bolaga yordam berish uchun kuzatuvchi va qo'llab-quvvatlovchi rolda bo'ladi.

2. **Reggio Emilia yondashuvi**

Reggio Emilia tizimi o'rganishda bolalar bilan hamkorlikni va jamoaviy faoliyatni targ'ib qiladi. Bu yondashuvda bolaning fikrini tinglash, ijodiy va empatik ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tarbiyachilar bola tomonidan yaratilgan g'oyalar va tushunchalarni qo'llab-quvvatlashadi.

3. **Vygotskiyning ijtimoiy o'rganish yondashuvi**

Lev Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan bu yondashuv bolalar o'rganish jarayonini ijtimoiy va madaniy kontekstda qaraydi. Uning fikriga ko'ra, bolalar boshqalar bilan muloqot qilish orqali bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu yondashuvda tarbiyachi bolalar uchun murakkab vazifalarni bajarishda yordam beradi.

4. **Fenomenologik yondashuv**

Fenomenologik yondashuvda bolalar o'z tajribalariga asoslangan holda bilim olishadi. Bu yondashuvda bola o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan hodisalarni o'rganadi va o'z fikrlarini erkin ifodalaydi. Tabiat va muhit bilan bog'liq faoliyatlar bolalarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

5. **Kognitiv yondashuv**

Kognitiv yondashuvda bola miyaning rivojlanishiga, xotira, diqqat, va fikrlash ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv bolalarning muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar o'z bilimlarini amaliyotga qo'llashda qatnashadilar.



6. **Pester yondashuvi**

Bu yondashuvda bola turli madaniy va ijtimoiy tajribalar orqali rivojlanadi. Pester tizimi bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni, tajriba almashish va jamoaviy ishlarni o'rgatishga qaratilgan.

7. **Humanistik yondashuv**

Humanistik yondashuvda bolalar o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish muhim. Bu yondashuvda bolalarga o'z-o'zini anglash, o'z fikrini erkin ifodalash va hissiy-emotsional rivojlanish muhim ahamiyatga ega.

Har bir pedagogik yondashuv bolalar uchun o'ziga xos afzalliklar va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Shu jumladan, Germaniyada ishlab chiqilgan Klax pedagogikasi bolalarning texnologik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlardan biridir. **Texnologik qobiliyat** va **ijodiy qobiliyat** — bu ikki turli, lekin bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan qobiliyatlar bo'lib, har biri insonning turli sohalarda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

Texnologik qobiliyat

Texnologik qobiliyat — bu insonning turli texnologiyalarni tushunish, ulardan foydalanish va yangi texnologik yechimlar yaratish qobiliyatidir. Bu qobiliyat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, texnik jarayonlarni samarali boshqarish va turli texnologik vositalarni amaliyotda qo'llashni o'z ichiga oladi.

Texnologik qobiliyat quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- **Texnik bilimlar:** Kompyuterlar, dasturiy ta'minot, elektronika va boshqa texnologik asbob-uskunalar bilan ishlashni bilish.
- **Muammolarni hal qilish:** Texnologik yechimlarni ishlab chiqish, muammolarni tahlil qilish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash.
- **Ishlab chiqarish va boshqarish:** Yangi texnologik jarayonlarni joriy etish va samarali boshqarish.
- **Yangi texnologiyalarni o'rganish:** Tez o'zgarayotgan texnologiyalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish.



Ijodiy qobiliyat

Ijodiy qobiliyat — bu yangi, original va innovatsion gʻoyalarni yaratish, mavjud bilim va resurslarni yangi shakllarda qoʻllash qobiliyatidir. Ijodkorlik shaxsning oʻz fikrini erkin ifodalash, yangi tushunchalar yaratish, turli vaziyatlarga yangi yondashuvlar ishlab chiqish qobiliyatiga asoslanadi.

Ijodiy qobiliyat quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi:

- **Original fikrlash:** Oʻzgacha, yangi va noyob gʻoyalarni yaratish.
- **Muammolarni ijodiy hal qilish:** Oddiy yondashuvlardan tashqari, murakkab muammolarni boshqacha usullar bilan yechish.
- **Insonning estetik va hissiy rivojlanishi:** San'at, musiqa, dizayn kabi sohalarda ijodiy yondashuvlarni qoʻllash.
- **Ijtimoiy va madaniy oʻzgarishlarga moslashish:** Yangi davr talablariga mos ravishda ijodiy ishlanmalar yaratish.

Texnologik va ijodiy qobiliyatlarning oʻzaro aloqasi:

Bu ikki qobiliyat koʻpincha bir-birini toʻldiradi. Masalan, texnologik qobiliyatni ijodiy fikrlash bilan birlashtirish orqali yangi, innovatsion texnologiyalar yaratish mumkin. Ijodiy qobiliyat texnologiyalarning yangi shakllarini ishlab chiqishda, ularni yanada takomillashtirishda yordam beradi. Aksincha, texnologik qobiliyat ham ijodkorlikni yangi vositalar bilan qoʻllab-quvvatlashga imkon yaratadi.

Ushbu pedagogika modeli ijodkorlik, texnologik koʻnikmalar va ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qoʻllab-quvvatlash orqali bolalarni zamonaviy jamiyatga moslashishga tayyorlashni maqsad qiladi. Klax pedagogikasi oʻyin asosidagi taʼlim, loyiha asosidagi faoliyat va hamkorlikdagi oʻzaro taʼsirlar orqali bolalarni ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar topishga undaydi [3]. F.Ahmadaliyeva “Oʻyinining bola faoliyati sifatidagi mohiyati va oʻziga xosligi”ni, rus pedagogi A.S.Makarenko “Bola oʻyinda qanday boʻlsa, oʻsib ulgʻaygach ishda ham koʻpincha, koʻp jixatdan shunday boʻladi” —deb toʻgʻri aytgan edi. A.M. Gorkiy “Oʻyin bolalar yashayotgan va oʻzgartirishi ish lozim boʻlgan dunyoni bilish yoʻlidir”—deb bejiz aytmagan. Oʻyin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bogʻcha yoshidagi bolalarda oʻz xulqini boshqarish koʻnikmalarini tarkib toptirishga bogʻliq psixologik



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th August, 2025

muammoni o'rgangan Z.V.Manuylekning fikricha, biror maqsadra yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan oyinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil bog'cha yoshi davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaparanda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin.

Xulosa

Ushbu tadqiqot Klax pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning texnologik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rgandi. O'zbekiston ta'lim tizimida texnologik innovatsiyalar va ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik usullarni joriy etish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Mazkur mulohazaga asos ushbu maqola Klax pedagogikasining ijodkorlik, texnologik ko'nikmalar va ijobiy ijtimoiy xatti-harakatlarni rivojlantirishdagi samaradorligini o'rganib chiqdi.

1. Asosiy natijalar

Klax pedagogikasi o'yin asosidagi ta'lim, loyiha asosidagi faoliyat va hamkorlikdagi o'zaro ta'sirlar orqali bolalarni ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar topishga undaydi. Ushbu pedagogik yondashuv yordamida bolalarda raqamli savodxonlik, kompyuter tafakkuri, va dasturlashning boshlang'ich ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, Klax pedagogikasi emotsional intellekt, ijtimoiy muloqot, hamdardlik, va o'z-o'zini boshqarish kabi ijobiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Klax pedagogikasi an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan bolalarning kognitiv moslashuvchanligini, ijodiy tafakkurini va ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarini samaraliroq rivojlantiradi.

2. O'zbekiston ta'lim tizimi uchun amaliy tavsiyalar

Klax pedagogikasining O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi o'quv jarayonini zamonaviy, interaktiv va bolalar markazli qilib tashkil etishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarini texnologik vositalardan foydalanish, o'yin asosidagi ta'lim metodikasi va loyiha



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th August, 2025

asosidagi o'qitish usullari bo'yicha malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash tavsiya etiladi. Klax pedagogikasining ijodkorlik, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari va ijtimoiy-emotsional rivojlanish bo'yicha samaradorligini oshirish uchun maxsus raqamli platformalar, o'yin vositalari va loyiha materiallarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish lozim. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi tomonidan Klax pedagogikasi asosidagi ta'lim metodikalarini davlat ta'lim standartlariga integratsiyalash bo'yicha tavsiya etmalar ishlab chiqilishi zarur.

3. Nazariy xulosalar

Ushbu tadqiqot Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, Vygotskiyning sotsiomadaniy nazariyasi, va Papertning Konstruksionizm nazariyasi asosida Klax pedagogikasining ilmiy asoslarini tushuntirdi.

Tadqiqot natijalari Piaget tomonidan ilgari surilgan o'yin orqali bilim olish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish g'oyalarini tasdiqladi.

Vygotskiyning Sotsiomadaniy nazariyasi Klax pedagogikasi orqali ijtimoiy o'zaro ta'sir, hamkorlikdagi o'rganish va madaniy kontekst orqali bolalarning kognitiv o'sishini tasdiqlaydi. Papertning Konstruksionizm nazariyasiga binoan, Klax pedagogikasi yordamida bolalar texnologiyalar yordamida amaliy bilim olish, mustaqil o'rganish, va ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. Tadqiqot cheklovlari va kelajakdagi izlanishlar yo'nalishlari

Tadqiqot O'zbekistonning ma'lum bir hududida amalga oshirilgan bo'lib, natijalarni mamlakat miqyosida umumlashtirish uchun kengroq geografik qamrovda tadqiqotlar o'tkazilishi lozim.

Klax pedagogikasining o'zbek madaniyati va an'alariga moslashtirish imkoniyatlari bo'yicha chuqurroq tadqiqotlar talab etiladi.

Uzoq muddatli ta'sirni o'rganish uchun longitudinal tadqiqotlar o'tkazilib, Klax pedagogikasi yordamida o'rganilgan qobiliyatlarning maktabdagi akademik yutuqlarga va ijtimoiy moslashuvchanlikka ta'siri tahlil qilinishi kerak.

5. Xulosa

Ushbu tadqiqot Klax pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning texnologik va ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganib chiqdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Klax pedagogikasi zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashuvchan, innovatsion va bolalar markazli yondashuv bo'lib, O'zbekiston



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th August, 2025

ta'lim tizimida keng qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Ta'lim siyosatini ishlab chiquvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun ushbu tadqiqot ilmiy asoslangan tavsiyalar berib, maktabgacha ta'limdagi innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu natijalar O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida Klax pedagogikasini joriy etish orqali bolalarning texnologik ko'nikmalari, ijodiy tafakkuri va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Gazeta.uz, 'O'zbekistonda maktabgacha ta'lim qamrovi va sifati oshmoqda'. [Online]. Available: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/23/preschool/>
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 'O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida, PQ-4312-son qarori'. 2019. [Online]. Available: <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
- [3] Klax Pedagogikasi Rasmiy Sayti, 'Klax Pedagogikasi: Zamonaviy ta'lim falsafasi'. [Online]. Available: <https://www.klax.de>
- [4] UNESCO, 'Early Childhood Education and Digital Learning: Global Trends and Innovations'. [Online]. Available: <https://unesco.org/early-childhood>
- [5] EACEA, 'Early Childhood Education Systems in Europe'. [Online]. Available: <https://eacea.ec.europa.eu>
- [6] J. Piaget, The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press, 1952.
- [7] L. S. Vygotsky, Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
- [8] S. Papert, Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. Basic Books, 1980.
- [9] O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi, 'Maktabgacha ta'limdagi islohotlar va yangiliklar'. [Online]. Available: <https://mpe.uz>